



## O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA MOTAM LEKSEMASI BILAN BOG'LIQ REALIYALAR

Z.Khusanova

Farg'ona davlat universiteti I bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7943662>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2023 yil

Ma'qullandi: 15-May 2023 yil

Nashr qilindi: 17-May 2023 yil

### KEY WORDS

paradigma, antroposentrik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, struktur tilshunsolik, realiya, konotatsiya, emotsiyal-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalar.

### ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek va nemis millatlarining dafn marosimi bilan bog'liq realiyalar tahlil etiladi. Realiyalarni tarjima qilish jarayonida nafaqat tilni chuqur egallash, balki ushbu mamlakat turmush sharoiti, madaniyati va urf odatlari haqidagi bilimlardan boxabar bo'lish talab etiladi.

Bizga ma'lumki, tilshunoslikda uch xil an'anaviy paradigmaning mavjudligi tadbiq etiladi: qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, struktur tilshunsolik, antroposentrik tilshunoslik kabilardir. Antroposentrik yo'naliishlardan biri lingvokulturologiyadir.

Til ijtimoiy hodisa bo'lib undagi jarayonlar boyib, o'zgarib, yangi ma'no kasb etibgina qolmay, shu tilda so'zlashuvchilarining qiziqishlari, ichki olami, dunyoqarashlari orqali uyg'unlikda shakllanadi va rivojlanadi.

Til kommunikativ, emotsiyal-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalarni bajaradi. Tilning akkumulyativ funksiyasi madaniy munosabatlar, milliy qadryatlarni aks ettirish xususiyati orqali namoyon bo'ladi. Til va madaniyatni o'rganadigan asosiy soha – lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri realiyadir. [2,13]

Ma'lum bo'lishicha, realiyalar shu kunga qadar bir qator olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Masalan, realiyalarni rus olimlaridan V.G.Chernovning ishlariida rus tilidan realiyalarni ingliz tiliga tarjima qilish atroficha tahlil qilingan. Realiyalarni boshqa tushunchalardan farqli tomonlarini bevosita rus olimi L.L.Sapagovaning ishlari e'tiborga loyiq. Yevropa tilshunoslida O.Kade, J.Munen, O'zbek tilshunoslaridan G.Salomov, N.Komilov, R.Fayzullayevalar realiyalarni dolzarb muammolarini tadqiq etishgan.

Realiya so'zi lotincha "realia" dan olingan bo'lib, u ashyoviy haqiqiy degan ma'nolarni anglatadi. Lingvistik o'zbek atamalar lug'atida unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurulishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so'zlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik" [4,381] deyiladi.

Ko'rinaridiki, o'zbek va nemis millati xalqiga tegishli bo'lgan motam bilan bog'liq realiyalar o'rtsida farq mavjud. Bir til jamosiga xos realiyalar boshqasida mavjud bo'lmaydi, yoki realiya ikki til jamoasida ham mavjud bo'ladi, birida u alohida yoki maxsus holda ifodalanmaydi. Dastavval nemis xalqida mavjud realiyalarini o'rganib chiqamiz.

**Leichenschmaus der:** humorvoll ein gemeinsames Essen, zu dem sich die Verwandten und Bekannten eines Toten nach dessen Beerdigung treffen. (Dafn marosimidan so'ng barcha yaqin qarindoshlar, do'stlar birgalikda qahva ichib, shirinliklar tanovvul qilib marhumni yod etadilar va uni hayoti davomida qilgan ibratli ishlarini sarhisob qilishadi. Bu odat ko'pincha qabrstonda yoki ibodatxonalarda o'tkaziladi) [4,704]. Demak, Leichenschmaus leksemasi musulmon xalqlarda uchramaydi.

**Totengräber der;** -s, -; j-d, der beruflich auf dem Friedhof die Gräber gräbt/ hierzu **Totengräberin** (Qabristonda qabr qazuvchi go'rkovlik kasbi/**go'rkov ayol**) [4,1071] Shunday qilib, go'rkov leksik birligi har ikkala xalq uchun muvofiq, lekin go'rkov ayol realiyasi faqat nemis xalqiga xosligi ko'zga tashlanadi.

**Leichenhalle** die ein Gebäude auf dem Friedhof, in welchem die Särge mit den Toten bis zur Beerdigung stehen. (Qabrstonda joylashgan bino, dafn qilishgacha bo'lgan muddatda mayit saqlanadi. [4,704] Namoyon bo'lishicha bizning yurtimizda mayitni saqlash uchun maxsus bir joy yo'qligi, mayitni ko'p saqlamay uni tezroq dafn etilishi ta'kidlanadi.

Vaqt zamon makon o'zgarishi bilan odamlar hamda ularning yashash tarzi, qiziqishlari ham tobora o'zgarib bormoqda. O'zbek xalqida dafn marosimlarida mayit yuviladi va hech qanday pardoz vositalaridan foydalanilmaydi. Aksincha, nemis xalqida esa ko'p hollarda mayit pardoz qilinadi. Fikrimizga oydinlik kiritish uchun nemis tili izohli lug'atiga murojaat qilamiz.

**Kosmetische Behandlung für Leichnam** – der Leichnam wird angekleidet und mit Feuchtigkeitscreme behandelt, damit z.B. Lippen nicht austrocknen. Auf Wunsch von Angehörigen können Verstorbene geschminkt werden. (Mayitni kiyintiriladi va lablari qurib qolmasligi uchun namlantiruvchi kremlar surtiladi, xattoki mayitning istagiga ko'ra pardoz qilinishi ham mumkin.)

Ko'rinaridiki ushbu realiya tubdan farq qiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida kafan so'ziga quydagicha ta'rif berilgan.

**Kafan** – ko'mish oldidan murdani o'raydigan oq mato, qabr libosi.

*Uni [o'lgan bolani] eski doka kafanga o'ragan vaqtida, bo'yni va oyoqlari cho'zilib ketganini ko'rib, uch yoshga kirganini esladilar.* \P.Tursun O'qituvchi\

*Yigitali otasining oyoqlarini quchoqlab, o'kirib-o'kirib uzoq yeg'ladi, biroq kafan tortilgan yuzlarini ko'ra olmadi.* \D.Nuriy, Osmon Ustuni\

Quyida keltirilgan kafan realiyasi nemis xalqida uchramaydi, nemis mamlakatlarida marhum qanday kiyinshni afzal ko'rgan bo'lsa ushbu kiyimda dafn etiladi. Keltirilgan izoh va sharhlar til o'rganuvchi uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Faqat shu yo'l orqali realiyalarini mohiyatini bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Keltirilgan fikrlarni yanada dalillash maqsadida motam leksemlari bilan bog'liq nemis millati realiyalarini izohli lug'at orqali talqin etamiz.

**Einbalsamierung** – Wenn Verstorbene im offenen Sarg aufgebahrt werden sollen, werden sie meist einbalsamiert. Dafür werden Körperflüssigkeiten durch ein steriles Einbalsamierungsfluid zur Konserve ersetzt. (Agar mayit ochiq qabrga qo'yilsa, ko'pincha

balzamlanadi. Natijada tana suyuqliklari saqlanish uchun sterling balzamlashtiruvchi suyuqlik bilan alamshtiriladi).

**Bestattungsinstitut** das eine Firma, die Tote bestattet und sich um die notwendigen Formalitäten kümmert. (O'liklarni dafn qiladigan, hamda turli xil hujjat ishlarini olib boradigan kompaniya) [4, 208].

**Totenwache** die die Wache von einer Person oder mehreren Personen bei einem Toten Menschen bis zur Beerdigung. (Dafn etilguniga qadar bir yoki bir nechta shaxslar marhum bilan tobut oldida 10 yoki 15 minutlik sukunatda bosh egib, xayrlashish marosimi) [4, 1099]



**Totenglocke** die eine Glocke die bei einer Beerdigung geläutet wird. (O'lim munosabati bilan chalinadigan qo'ng'iroq) [4, 1099]

Realiyada til va madaniyat o'rtasidagi yaqinlik yaqqol namoyon bo'ladi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida yangi realiyalarning paydo bo'lishi tilda realiya vujudga kelishiga olib keladi. Leksika ijtimoiy hayotning barcha

o'zgarishlariga o'z ta'sirini ko'rsatishi sababli tilda yangi realiyalarning paydo bo'lish paytini aniq aytish mumkin. Biroq bir vaqtning o'zida eng oddiy tushunchalarni ifodalay turib, shu bilan birga mazmuniy va hissiy "fonli" nozik farqlarni ham ifodalovchi ko'pgina so'zlar mavjud. Tilda "konnotativ so'zlar"ni leksik birlikning o'ziga xos tipi sifatida ajratish shak - shubhasiz maqsadga muvofiqdir, chunki konnotatsiyalar, ya'ni so'zlarga hamrohlik qiluvchi stilistik, emotsional va mazmuniy farqlar o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi, ular so'z ma'nolaridan biriga bog'lanadi. ealiyani tilning boshqa so'zlari bilan taqqoslaganda uning farqli tomoni shuki, realiya ifodalaydigan predmet, tushuncha, hodisaning bir tomonidan xalq bilan va boshqa tarafdan vaqtning tarixiy bo'lagi bilan yaqin aloqasi hisoblanadi. Bundan milliy, mahalliy yoki tarixiy koloritning realiyaga xosligi ko'rinish turibdi. [2,13]

Shunday qilib, o'zbek va nemis tillaridagi motam leksemalarini ko'rib o'tdik. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, realiyalarni tarjima qilish jarayonida nafaqat tilni chuqr egallash, balki ushbu mamlakat turmush sharoiti, madaniyati va urf odatlari haqidagi bilimlardan boxabar bo'lish talab etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Kasimova Ziyoda. Realiyalar semantikasi tarjima matnlardagi ifodasi- Toshkent, 2021
2. N.G.Nazarova. Ingliz va o'zbek tillarida realiyalar. – Farg'ona, 2022.
3. Kakharov, K. (2023). FORMS OF GREETING AND ADDRESS IN THE UZBEK AND GERMAN PEOPLES. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 635-637.
4. Langescheidt, Grösswörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Berlin und München. 2008.S-164.
5. Kaxarov, Q., & Usmanova, F. (2023). NEMIS TILIDAGI GRAMMATIK KATEGORIYALARNING O 'ZIGA XOSLIKLARI VA ULARNI O 'ZBEK TILI BILAN TAQQOSLASH. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 148-151.
6. Kakharova, M. (2023). ASSESSMENT OF THE KNOWLEDGE OF LANGUAGE LEARNERS. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(4), 181-184.
7. Kaxarova, M. M., & Aripova, S. (2023). UNIQUE CHARACTERISTICS OF LEXEMES RELATED TO MARRIAGE IN DIFFERENT COUNTRIES. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(4), 185-188.
8. Pazilova, Z. (2021). Traditions as an integral part of ethniculture. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(9), 689-691.
9. Пазилова, З. Ш. (2022). ЎЗБЕК ВА НЕМИС ХАЛҚЛАРИДА БОЛАЛИК ДАВРИГА ХОС БҮЛГАН УРФ-ОДАТ ИФОДАЛОВЧИ ЛЕКСИК ИФОДАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. OLIY VA O 'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 122.

INNOVATIVE  
ACADEMY